

**QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH  
SANOATIDA INVESTITSION SALOHIYAT**

**G'ofurova Gulnoza Dilshod qizi**

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi Biznes va  
tadbirkorlik oliy maktabi MBA- Agrobiznes  
sirtqi ta'lim yo'nalishi magistranti*

***Annotatsiya.** Maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sanoat usulida chuqur qayta ishlash sohasida investitsion salohiyatni oshirishga qaratilgan masalalar, shuningdek yangi innovatsion texnologiyalarni mamalakat qishloq xo'jaligi sohasiga tadbiriq etish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish hamda qishloq xo'jaligida innovatsiyani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mehanizmlarini takomillashtirish yuzasidan olib borilishi borilayotgan jarayonlar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** oziq-ovqat ta'minoti va xavfsizligi; investitsion salohiyat, qulay agrobiznes muhiti; qishloq xo'jaligi mahsulotlari; birlamchi va chuqur qayta ishlash, qayta ishlash sanoati.*

***Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы направленные на повышение эффективности инвестиций в сферу сельскохозяйственного производства и глубокой промышленной переработки, а также увеличение объема валового внутреннего продукта за счет применения новых инновационных технологий в аграрном секторе страны, а также развития инноваций. В сельском хозяйстве описаны процессы совершенствования организационно-экономических механизмов.*

***Ключевые слова:** продовольственное обеспечение, продовольственная безопасность, первичная и глубокая переработка, цепочка добавленной стоимости, вертикальная и горизонтальная интеграция, агропромышленный кластер, обрабатывающая промышленность, фермерское хозяйство, инновационная сила.*

***Annotation.** The article addresses issues aimed at improving the efficiency of investments in agricultural production and advanced industrial processing, as well as increasing the gross domestic product through the application of new innovative technologies in the country's agricultural sector and the development of innovations. The processes of improving organizational and economic mechanisms in agriculture are also described.*

***Keywords:** food security, food safety, primary and advanced processing, value chain, vertical and horizontal integration, agro-industrial cluster, processing industry, farming, innovative capacity.*

**KIRISH**

Mamlakatimizda ijtimoiy ishlab chiqarish sohasi bozor munosabatlarida shakllanayotgan bir paytda, xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida ham iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va xizmat ko'rsatishda katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Bunda asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash sohasi keng ko'lamda rivojlanmoqda. Ayniqsa ushbu sohaga investitsiyalarni kirib kelishi mahsulot tannarxini ortishi hamda shu asosida qishloq xo'jaligi klasterlarini shakllanishiga olib keladi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi" da mahsulotlarni

daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish zanjirida integratsion aloqalarni yetarli darajada taraqqiy etmaganligi sababli qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini cheklayotganligi va hozirgi kunda respublikamiz hududida 70 foiz ulushga ega bo'lgan dehqon va tomorqa xo'jaliklari qayta ishlash va qayta tayyorlov eksportyor korxonalar bilan hamkorlik munosabatlari yetarli darajada rivojlanmaganligi keltirib o'tilgan<sup>1</sup>.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash — bu qishloq xo'jaligi xomashyolarini sanoat usullari yordamida o'zgartirish, qiymatni oshirish va oxirgi iste'molchilar mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati iqtisodiy o'sish uchun muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bu sohaga investitsion loyihalarning kirib kelishi, aynan, mamlakatlarning qishloq xo'jaligi va sanoat infratuzilmasini yaxshilashda katta rol o'ynaydi.

Investitsiyalar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish hajmini orttirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va ish o'rinlarini yaratish kabi masalalarda katta imkoniyatlar yaratadi.

Qisqa qilib aytganda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tayyor mahsulotlarni hosil qilish jarayonidir.

**Tadqiqotning asosiy maqsadi** - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida tashqi va ichki investorlar yordamida yuqori talablarga javob beruvchi yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot tannarxini oshirish va jahon bozoriga raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan birga mamlakatning investitsion kuchini rivojlantirish.

**Tadqiqotning vazifalari** - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari bo'yicha qo'yilgan investitsiyalar darajasini solishtirish; investorlarni jalb qiluvchi omillarni aniqlash; qishloq xo'jaligiga investitsiyalar va hosildorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish; investitsion salohiyatni oshirish evaziga qishloq xo'jaligini iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichini oshirishga erishishni o'rganishdan iborat.

### **I. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida investitsiyalarning o'rni**

Bugungi kunda mamlakatimizdagi islohotlar, eng avvalo, dunyoda, shu jumladan, jahon iqtisodiyoti konyunkturasida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga mos holda amalga oshirilmoqda. Tanlab olgan yo'limiz global inqirozdan keyin jahon iqtisodiyoti rivojlanish sur'atlari pasaygan bir sharoitda o'zining barqarorligi va hayotiyligini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son <https://lex.uz/docs/-4567334>

amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirish va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida institutsional hamkorlikni mustahkamlash, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni olib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti va Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi ko'magida yurtimizda 16 ta loyiha amalga oshirish bo'yicha umumiy qiymati 357 million yevroga teng kelishuv jamlanmasi imzolandi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning rivojlanishi qishloq xo'jaligi sektorining samaradorligini oshirish, aholi uchun sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish uchun zarurdir. Ushbu sanoatga investitsiyalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda muhim rol o'ynaydi:

*1. Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish:*

Investitsiyalar yangi texnologiyalar va uskunalarni joriy qilish imkonini beradi, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali qayta ishlash va ularning sifatini yaxshilashga yordam beradi.

*2. Qo'shimcha qiymat zanjiri yaratish:*

Mahsulotlarning faqat xom ashyo shaklida emas, balki qayta ishlangan shaklda bozorga chiqarilishi orqali mahsulot qiymati oshadi. Bu esa fermerlar va qayta ishlash korxonalarini daromadlarini oshiradi.

*3. Ish o'rinlari yaratish:*

Sanoatga kiritilgan investitsiyalar yangi korxonalar ochilishiga va mavjud korxonalar kengayishiga olib keladi, bu esa qishloq hududlarida ish o'rinlarini yaratadi va aholining daromadlarini oshiradi.

*4. Infratuzilmani rivojlantirish:*

Investitsiyalar qayta ishlash sanoati uchun zarur bo'lgan transport, saqlash, va logistika tizimlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bu mahsulotni bozorga tez va sifatli yetkazib berishga yordam beradi.

*5. Eksport salohiyatini oshirish:*

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash eksportga yuqori qiymatli mahsulotlarni chiqarishga imkon beradi. Bu esa mamlakatning tashqi savdo balansi va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshiradi.

*6. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish:*

Investitsiyalar innovatsiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga joriy qilishga imkon beradi. Masalan, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, qadoqlash texnologiyalarini yaxshilash va chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini qo'llash orqali barqaror rivojlanishga erishiladi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga investitsiyalar kiritish nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki qishloq hududlarida barqaror rivojlanishni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Investitsiyalar orqali nafaqat zavod va uskunalar qurish, balki mamlakatlarda qishloq xo'jaligi sektori bilan sanoatni integratsiyalash imkoniyatlari ham yaratilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati yuzaga keladi.

## **II. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida investitsiyalarning joriy holati**

Bugungi kunda yurtimizda qishloq xo'jaligiga kiritilayotgan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning vazifasi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ya'ni uskunalarni yangilashga, ishlab chiqarish va ishlab chiqarish hajmining oshishiga, qishloq xo'jaligi xom-ashyosi va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatda nima uchun qayta ishlash sanoatida investitsiyalar to'liq joriy etilmasligi mumkin, qachonki o'sha yurtda xomashyo yetkazib berishdagi muammolar mavjud bo'lib, ishlab chiqarish uskunalari eskirgan bo'lsa, shu bilan birga xususiy va davlat sarmoyalari muvofiqlashtirilmagan bo'lsa.

Bundan tashqari investitsiyalarni joriy etilishida chet-el kapital migratsiyasini kuchayishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. O'zbekistonda investitsiya faoliyatining huquqiy bazasi yaratilgan bo'lib, tashqi iqtisodiy investitsiya faoliyatini tartibga soladigan, chet el investitsiyalari va investorlarining huquqlari va manfaatlari himoyasini kafolatlaydigan bir qator qonunlar qabul qilingan. Bu yo'nalishdagi g'oyat muhim vazifalardan biri kapital qo'yilmalarning samarali yo'nalishlarini belgilashdan iborat. Bunda o'zaro manfaatlar, sheriklarga davlat kafolatlari berish; valyutaning erkin almashtirilishiga erishish, bank, transport, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatdan eksportni valyuta bilan tartibga solishning qulay sharoitlari joriy qilinganligi hisobiga olinadi.

So'nggi yillarda respublikamiz iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 3-4 foizi qishloq xo'jaligiga sarflangan. Bu mavjud imkoniyatlarga nisbatan kam. 2022 yilda qishloq xo'jaligiga 250 mln. dollarlik (5 ta loyiha), 2023 yilda 390 mln. dollarlik (7 ta loyiha), 2024 yilda esa 400 mln. dollarlik (7 ta loyiha) investitsiyalar kiritilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, investitsiya samaradorligi o'tgan yilga nisbatan

atiga 2,5 % ga oshgan xolos. Kelejakda ushbu samaradorlikni oshirish uchun chet-ellik investorlarni O'zbekistonda qayta ishlash sohasida faoliyat olib borishlariga qiziqtirish lozim.

Xo'sh chet-el investitsiyalari jalb etish bizga nima beradi, chet el investitsiyalari milliy investitsiya siyosatini olib borishda va ularni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, ularni jalb qilish esa mamlakatimiz byudjetiga soliq, ijara va boshqa tushumlarni ko'paytiradi hamda yangi ish o'rinlarini tashkil qilishga, raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish bilan jahon bozorlarida o'rnashib olishga yordam beradi<sup>2</sup>.

### TAQQOSLASH METODOLOGIYASI

**Taqqoslash metodi:** Taqqoslash metodi yordamida O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatidagi investitsion salohiyatni Xitoy tajribasi orqali o'rganib chiqamiz.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga davlat tomonidan subsidiya va imtiyozlar ajratiladi. Biroq, xususiy sektorni jalb qilish va xorijiy investitsiyalarni ko'proq rag'batlantirish ehtiyoji bor. Xitoyda esa qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatiga yirik davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali global bozorni nishonga olgan. "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida innovatsiyalar va infratuzilmalar rivojlantirilgan.

Shu bilan birga, yurtimizda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda cheklovlar mavjud, asosan xorijiy texnologiyalarga tayaniladi. Qishloq xo'jaligida qayta ishlash darajasi past bo'lib, xomashyo shaklida eksport yuqori darajada. Xitoyda qishloq xo'jaligida yuqori texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilgan, chuqur qayta ishlashni rivojlantirish orqali qo'shimcha qiymat yaratilmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha to'liq qo'shimcha qiymat zanjiri hali shakllanmagan. Mahsulotlar xomashyo sifatida eksport qilinadi yoki mahalliy bozorda sotiladi. Xitoyda to'liq qiymat zanjiri shakllantirilgan: xomashyoni yig'ish, qayta ishlash, qadoqlash va global bozorlarga yetkazib berish jarayonlari bir-biri bilan bog'langan.

O'zbekistonda fermerlar va qayta ishlash korxonalarini o'rtasidagi kooperatsiya sust rivojlangan va qayta ishlash quvvatlari yetarli emasligi fermerlarning mahsulot sotish imkoniyatlarini cheklaydi. Xitoyda vertikal va gorizontaal integratsiya modeli yaxshi rivojlangan. Fermerlar, kooperativlar va qayta ishlash korxonalarini bir tizim sifatida ishlaydi.

Investitsion muhitda davlatimizning ishtiroki yuqori, lekin xususiy sektor va xalqaro investorlarga ko'proq imkoniyat yaratish zarur. Xitoy davlat-xususiy

<sup>2</sup> Mahsulot imkoniyatlari <https://advice.uz/oz/document/126>

shiriklik mexanizmlaridan samarali foydalanadi, bu esa innovatsiyalarni tez joriy etish va global bozorga chiqishda muvaffaqiyat keltiradi.

Xitoyning muvaffaqiyati uzoq muddatli strategiyasi to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar va xalqaro bozor talablarini chuqur o'rganish natijasi bo'lib, bu tajriba O'zbekiston uchun o'rnak bo'lishi mumkin<sup>3</sup>.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda past va o'rta daromadli mamlakatlar qishloq xo'jaligiga yuqori daromadli mamlakatlar kabi deyarli sarmoya kiritmoqda, bu har ikki guruh mamlakatlarda taxminan 190 milliard AQSh dollari. 1991-2014 yillarda qishloq xo'jaligiga investitsiyalar har xil sur'atlarda bo'lsa-da, barcha mamlakat guruhlarida o'sdi. Yuqori daromadli mamlakatlarda investitsiyalar taxminan 120 milliarddan 190 milliard AQSH dollariga oshdi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati taxminan **2%**. **bo'ldi**. Xitoyda investitsiyalar 10 milliard AQSh dollaridan 75 milliard AQSh dollariga o'sdi, bu o'sish sur'ati taxminan **9 foizni tashkil etdi**, past va o'rta daromadli mamlakatlarda qishloq xo'jaligiga investitsiyalar 45 milliard AQSh dollaridan 115 milliard AQSh dollariga ko'tarilib, taxminan **4 foizga o'sdi**.

Bugungi kunda O'zbekiston-Xitoy o'zaro Tovar aylanmasi qariyb 40% ga oshgan. Investitsion loyihalar 5 barobarga, qo'shma hamkorlik korxonalarini soni 3 barobarga ko'paygan. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markaziga ko'ra, 2022 yilda Xitoyning investitsiyalari 1,67 mlrd. dollarni (to'g'ridan- to'g'ri investitsiya- 739 mln. dollar), 2023 yilning yanvar-sentabr oylarida Xitoyning O'zbekistonga investitsiyalarining umumiy hajmi 2,22 mlrd. dollarni (to'g'ridan- to'g'ri investitsiya- 1,01 mlrd. dollar) tashkil etgan.

Qishloq xo'jaligiga global sarmoya kiritishda past va o'rta daromadli mamlakatlarning ustunligi bu sektor muhimroq ko'rilyotganligini anglatmaydi. Qishloq xo'jaligiga qo'yilgan investitsiyalar umumiy investitsiyalardagi ulushini va qishloq xo'jaligi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushini taqqoslash mamlakatlar guruhlarini o'rtasidagi muhim tarkibiy farqlarni ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida kapital zichligi darajasi ham o'zgarib turadi, bu yuqori daromadli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi past va o'rta daromadli mamlakatlarga qaraganda sezilarli darajada ko'proq kapitalni talab qilishini ko'rsatadi. Biroq, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani (shu jumladan Xitoy), Janubiy Osiyo, Evropa va Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kapital sig'imi asta-sekin o'sib bormoqda. Buni yuqori daromadli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi turiga yaqinlashish belgisi

<sup>3</sup> Sputnik O'zbekiston <https://sputniknews.uz/20240123/ozbekiston-xitoy-hosildorlik-yangitexnologiyalar-42159797.html>

sifatida aniq talqin qilib bo'lmasa-da, kapitalning asta-sekin o'sib borishi, boshqa manbaalar va omillar, ayniqsa, mehnat o'rnini bosishini ko'rsatishi mumkin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida investitsion salohiyatni o'rganish iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarni aniqlash va ularni rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili bu yo'nalishda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan asosiy jihatlarni ko'rsatib beradi. Bu bo'yicha adabiyotlarning asosiy yo'nalishlari va natijalari tahlil qilinadi.

Misol uchun, qayta ishlash sanoatida investitsiyalarning o'rnini mavzusida tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga investitsiyalar quyidagi jihatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolaning ushbu qismida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-sonli qarorida keltirib o'tilgan vazifalar va qayta ishlash sanoatidagi muhim ustuvor yo'nalishlar belgilab o'tilgan masalalar keltirilgan.

O'zbekiston sharoitida qayta ishlash sanoatining rivojlanishi va investitsion salohiyati haqida ko'plab mahalliy va xalqaro tadqiqotlar o'tkazilgan. Masalan, mahalliy tadqiqotchilarni oladigan bo'lsak, tadqiqotchi Q. Vohidov va boshqalarning tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ko'tarilgan.

Tadqiqotchi Sh. Axmedov tomonidan esa qayta ishlash sanoatida klaster yondashuvining ahamiyati tahlil qilingan.

Xalqaro ekspertlar tomonidan Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan e'lon qilingan tahlillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda xususiy sektorni jalb qilish va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish zarurligi ta'kidlangan.

FAO ning Xitoy qishloq xo'jaligi bo'yicha hisobotlari hamda "China's Rural Development and Agro-Processing Industry" tadqiqotlarida kichik va o'rta korxonalar uchun davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar va qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi haqida muhim yo'nalish va tushunchalar berib o'tilgan.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun xususiy sektorni rag'batlantirish: Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kreditlarni ko'paytirish kabi tavsiyalar berib o'tilgan.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi bo'yicha barcha yo'nalishlarga sarflanayotgan investitsiyalarning maqsadga muvofiq yo'naltirilishi ta'minlanishi kerak. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tarmog'iga davlat budjetidan ham ko'plab mablag'lar yo'naltirilmog'da. Jumladan, qishloq xo'jaligining ayrim sohalarni

rivojlantirish uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Mazkur mablag'lardan foydalanish ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozim. Ulardan oqilona, samarali foydalanish natijasida qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti, yalpi va sof daromadi ortadi. Bu investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda Xitoy tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish zarur. Qo'shimcha qiymat zanjirini rivojlantirish orqali qayta ishlash zanjirini to'liq shakllantirish orqali mahsulotning qiymatini oshirish kerak. Shuningdek, integratsiya va hamkorlikni rivojlantirib, fermerlar va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kooperativ tizimni kengaytirish lozim. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda esa Xitoyning investorlar uchun qulay muhit yaratish tajribasi o'rganilib, O'zbekistonda tatbiq etilishi mumkin. Bundan tashqari, eksport salohiyatini oshirishda Xitoyning eksport strategiyasidan foydalanib, yuqori sifatli qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratish zarur.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida investitsion salohiyat katta imkoniyatlar yaratadi. Investitsiyalar yordamida texnologiyalarni joriy qilish, ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini orttirish va qishloq xo'jaligi bilan sanoatni integratsiyalash kabi masalalarda katta ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida 2026-2027 yillarda yetishtirilayotgan mahsulot hajmi ortishiga erishish uchun, qishloq xo'jaligida investorlarni jalb qilish va yangi investitsion texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish hajmini oshirishi bo'yicha harakatlarni amalga oshirish lozim. 2028-yildan keyin ehtimoliy jahon xizmatlar eksporti hajmi kamayish davrida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar xizmat turlarini ko'paytirishi va xizmat ko'rsatish sifatini yana yaxshilash orqali xizmatlar eksporti hajmini saqlab qolishlari mumkin.

Yuqoridagi dalillardan kelib chiqib, aholini mehnat bilan ta'minlash va yetarli daromad manbalarini shakllantirish kambag'allikni qisqartirishning bosh omili bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati va o'zini-o'zi band qilish esa, aynan aholini mehnat bilan bandligini va yetarli daromad manbasiga ega bo'lishini ta'minlaydi hamda, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarning ko'payishi sohani rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar va qulay muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1994-yil 5-maydagi 1053-XII-son Qonuni.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.07.2019 yildagi PQ-4406-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 -2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Alisherovna, M. K. (2021). Car transport an approach to the research of the essence of investment activities of enterprises. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(5), 415-418.
5. Абдуғаниев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. -Т.: Адабиёт жамғармаси. 2007. -340 б.
6. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 363-368.
7. Alisherovna, M. K. (2021). Tasks of implementation of investment policy. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 848-852.
8. Mukhitdinova, K. A. (2020). The Importance of Sources of Financing of Transportation System. In *Наука 2020. Теория И Практика* (pp. 23-25).
9. Davlat xarajatlarining qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilganlik indeksi.
- 10.FAO, 2017. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligining kelajagi - tendentsiyalar va muammolar. Rim.
- 11.

ACADEMIC BOOK